

O‘ZBEK OPERA SAN’ATINING RIVOJLANISH TARIXI

Qudratullayeva Ehtiromxon

*O‘zDSMIFMF “Xalq ijodiyoti” Professional
ta’lim cholg‘u ijrochiligi 3-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Rafiqjon Ahmedov

O‘zDSMIFMF katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek opera san’atining uzoq o‘tmishi, tarixi va rivojlanishi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: Opera, janr, dramaturgiya, antrakt, uvertyura, vakal, libretto, repertuar, balet, hamohang, Hindiston, Avrangzeb, mumtoz, teatr, italyan, paranj.

Opera lotincha so‘zdan olingan bo‘lib mehnat mahsuli degan ma‘noni anglatadi. Opera dramatik san‘at janri bo‘lib o‘zida bir nechta san‘at turlarini mujassam qilgan. Misol uchun, dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at va raqs san‘ati shakllari aynan sahnaviy jarayonda bir-birlari bilan uzviy bog‘lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o‘rini egallaydi. Operadagi adabiy asos librettodagi hodisa va voqealarning musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, aynan, vakal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kvartina kabi tugal musiqa lavhalarida oz qiymatini topadi va aynan operadagi rehitativ tugal musiqa shakllarini o‘zaro bog‘lab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Turli xil vakal ansambillari jumladan duet, trio, kivant, kvartet va boshqalarda qahramonlarning o‘zaro munosabatlari, dramatik voqealar o‘z aksini topadi. Operada xor jamoasi ham bo‘lishi shart uning vazifasi ro‘y berayotgan voqealar rivojining qaydarajada ekanligini va xalq hayoti lavhalarini yaqqol gavdalantiriladi. Operada orkestr jamoasi ham kata o‘rin egallaydi. Orkestr jamoasi vakal jamoasiga jo‘r bo‘gan holatda o‘z cholg‘ulari yordamida antrakt, uvertyura, introduksiya va boshqa qismlar yordami bilan vaziyatning mazmunini ochib beradi. Shu bilan bir qatorda har bir sahnaning ruhiy holatini ifodalashga yordam beradi. Operaning tuzilishi uning g‘oyaviy maqsadiga syujet xususiyatlariga aynan, uning musiqiy- ijodiy maktab an‘analari va uslublariga hamda kompazitorlarning ijodiy tafakkuriga bog‘liq. Xulosa qilib aytganda opera san‘atlar uyg‘unligini o‘z ichiga olib ayniqsa, kompazitorda sahna xususiyatlari va dramaturgiya qonuniyatlarini puxta bilishni taqazzo etuvchi murakkab janrdir.

Opera alohida san‘at turi sifatida XVI asr oxirida Florensiyaning Italiya shahrida tan olingan aynan Ya Perining “Dafna” operasi- 1598 yilda, “Evridika” operasi- 1600 yildagi asarlari bilan. Keyinchalik opera san‘ati Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham tarqaldi va rivojlandi. Bulardan tan nolingan daho kompazitorlar shular

jumlasidandir; K.V.Glyuk, R.Vagner, J.Verdi, P.Chaykovskiy va boshqalardan iboratdir.

O'zbekistonda opera janri o'zbek dramasi rivoji asosida shuningdek, chet el mumtoz Operasi ta'sirida yuzaga kelgan. XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida Toshkentga bir nechta gruzin-1894 yil, 1907 va 1915 yillarda italyan, tatar, rus, ozarbayjon Opera truppalari gastrolga kelgan. 1918-yildan Toshkentda Rus opera teatri o'z faoliyatini boshlagan va 1929-yilda M. Qoriyoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari, asosan, musiqali dramalardan iborat bo'lgan. Bu teatr sahnasida 1937 yilda "Er Targ'in" Ye. Brusilovskiy tomonidan va 1938-yilda "Nargiz" M. Magomayev tomonidan o'zbek tilida qo'yilgan birinchi operalar shular jumlasidandir. O'zbek opera va balet trup-pasi O'zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelgan. Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan. Bu so'zlarning isboti uchun 1930-yillar ohirida o'zbek va rus kompozitorlarining yirik sahnaviy janrda asar yaratilgan. Darhaqiqat M.Ashrafiy va V.Vasilenkolar hamjihatligida birinchi "Bo'ron" operasi ham yaratilgan. Bu opera halqimiz tomonidan tan olingan va hozirgacha sevib kuzatiladi. Shu davr ichida tarixiy — "Mangulik" U. Musayev, "Fidoyilar" S. Boboyev, zamonaviy — "Sadoqat" R. Abdullayev, atoqli shaxslarga bag'ishlangan — "Sug'd elining krploni" I. Akbarov, "Zebunniso" Sayfi Jalil, "Alisher Navoiy" M. Burhonov, shuningdek, kamer Operalar — "Sohilda to'qnashuv" N. Zokirov, "Ona qalbi" Hab. Rahimovlar va boshqa kompozitorlarning operalari bilan sahnalashtirilgan.

Urushdan keying davrda opera teatrining milliy repertuari ancha boyigan va bu birdaniga bo'lgan. Darhaqiqat Mustaqillik davri o'zbek Operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitilgan. Davr boshida repertuarda qayta tahrir qilgan eski asarlar S.Vaselenko va M.Ashrafiyning "Butuk kalal", V.Uspenskiy va G. Mushelning "Faehod va Shirin", T.Jalilov va B.Brovtsining "Tohr va zuhra" va boshqa asarlar shular jumlasidandir. Jahon mumtoz adabiyoti N. Zokirovning Shekspir tragediyalari asosida yaratilgan operasi, "Hamlet" va "Makbet" Opera dilogiyasi, hozirgi zamon ijtimoiy muommolarni ko'rsatuvchi opera N. Zokirovning "Muxtoriyat" operasi, O. Abdullayevaning "Vafo", operasi F. Yanov Yanovskiyning "Orkestr" Operalari, tarixiy shaxslar siy-molarini tasvirlovchi opera M.Bafoyevning "Al-Farg'oniy" va falsafiy mavzularni ochib beruvchi opera I. Akbarovning "Ibtido xatosi" Opera oratoriyalari Opera janrini keyingi rivojini belgilagan. Bu davrda o'zbek kompozitorlari Opera asarlarida o'zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an'analarini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog'lashga ahamiyat berdilar. Biroq 1958- yildan boshlab deyarli har nyili teatr o'z repertuariga yangi o'zbek operalarini kiritdi. Mavzu va badiiy saviyasi turlicha bo'lgan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilingan. Ba'zilari sahnadan tez tushib

ketgan va boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o‘rin egallagan. Biz shulardan mashxurlikka erishganlarini ajratib, avvalambor muhim, zamonaviy va aniq mavzularga bag‘ishlangan asarlarni ko‘zib chiqamiz.

“Zebuniso” operasi. 1987-yili Alisher Navoiy nomidagi akademik, kata opera va balet teatr jamoasi Sayfi Jalilning “Zebuniso” operasini tomoshabinlarga havola qilganlar. Bu opera o‘sha damda o‘z muhlislariga ega bo‘lgan. Maskur opera lirik – dramati va tarixiy opera hisoblanadi va bu operada XVII asrlarda Hindistonda hukumdorlik qilgan shoh Avrangzebning qizi, mashhur shoira Zebinisoning hayoti va ijodi haqida boradi. Opera janrining qonun xususiyatiga binoan asar qisqartirilgan va librettoga ariya, arioz, vakal- ansambl va xor nomerlariga she‘rlar bastalagan. Lirik-dramatik operada sodir bo‘ladigan voqealar asosan ikki bosh personaj- Zebuniso va uning otasi shoh Avrangzeb atrofida mojaro markazlashtirilgan. Ushbu tarixiy opra – biografik mavzuda yozilgan opera “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun” kabi operalar asosida yozilgan. Sayfi Jalil 1932-2003 yillarda Huddi shunday xususiyat voqealarni tushunib shoira Zebinisoning ruhiy olamiga hamohang ravishda musiqa bastalagan.

“Gulsora” operasi. Bu opera 30-yillarda yozilgan shu nomli musiqali drama singari o‘zbek ayollarining ozodlikka chiqishi mavzusi bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat spektakil mazmun mohiyatini 40-yillar oxirining tomoshabini “Gulsora” musiqali dramasi o‘n ikki yil avval birinchi bor sahnalashtirilganidan boshqacharoq qabul qilgan. Ayollar paranjini tashlaganu uchun o‘ch olish ham uzoq o‘tmishda qolib ketgan edi. Biroq eskicha e‘tiqotlar, ayollarga nisbatan “sovuq” munosabat hali hamon uchrab turadi. Shu sababdan ularga nisbatan qarshiliklar va kurashlar o‘z kuchini yo‘qotmagan edi. Ko‘plab o‘zbek ayollarning hayoti, kurashi, orzulari bilan bog‘liq bo‘lgan Gulsoraning taqdiri muhlislar qalbida aks sadosini topgan. “Gulsora” ning ommabopligi, hayotiyliigi ham shungadir. T.Jalilov opera asosidagi musiqa namunalarini to‘plab qisman yaratib bergan. T.Sodiqov yozib olgan va R.Glier qayta ishlagan kuylardan tashkil topgan. 1949-yili sahna premyerasi bo‘lib o‘tgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova “O‘zbek musiqasi tarixi” Toshkent- 2018 yil.
2. Ibrohimov O.A, Xudoyev G’.M “Musiq tarixi” Toshkent- 2018 yil.
3. Trigulov A.X., “Xorijiy musiqa adabiyoti”, T., 2019.
4. uz.m.wikipedia.org
(<https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=Opera&action=edit§ion=1>)